

**“XAVFLI GURUH”GA KIRADIGAN BOLALAR寧 RUHIY  
HOLATIDAGI SALBIY O`ZGARISHLARNI O`Z VAQTIDA  
ANIQLASH, ULARNI IJTIMOIY MUHITGA MOSLASHTIRISH VA  
BO`SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH**

*Andijon viloyati Marhamat tumanidagi 8-maktab psixologi  
Ataxonova Muxayyoxon*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Xavfli guruh” ga kiradigan bolalar宁 ruhiy holatidagi salbiy o`zgarishlarni aniqlash, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish va bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish haqida ma`lumot berilgan. Kalit so`zlar: “xavfli guruh”, steriotip, tarbiya, odob-axloq, noqobil, tarbiyasi og`ir, huquqbazarlik, jinoyatchilik, kriminologik, individual xususiyatlar, xulq-atvor,nosog`lom muhit, tanqid Hozirgi davr rivojlanish dinamikasi, ijtimoiy andoza (stereotip)lardagi chuqur va keskin o`zgarishlar, nafaqat kattalar, balki bolalar oldiga ham yuqori talablarni qo`ymoqda. Bularning barchasi oiladagi talabga javob bermaydigan tarbiyaviy ta`sir, oshkora va yashirin qarovsizlik, qadriyatlarning buzilishi, bolalar xulqida noijtimoiy, ya`ni jamiyatga yot bo`lgan holatlarning paydo bo`lishi kabi ruhiy jarohat beruvchi ijtimoiy omillarning kuchayishiga olib keladi. Buning sabablari esa quyidagilar: maktab va oiladagi kelishmovchiliklar, ijtimoiy moslashuvning qiyinchiliklari; sog`liq bilan bog`liq muammolar va boshqalar.

Bunday murakkab ijtimoiy sharoitda maktabning vazifasi - har bir bolaga to`g`ri yo`lni tanlashga yordam berishdan iborat. Maktab oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanib, u ijobiy ijtimoiy xulq qoidalarini o`quvchilar ongiga singdirishi, bolaning ijtimoiy va emotsiunal rivoj-lanishiga imkoniyat tug`dirishi kerak.

Haqiqatdan ham o`sib kelayotgan yosh avlodning ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo`lsak, bolalar va o`smirlar o`rtasidagi turli xil g`ayriqonuniy, shu jumladan jinoyatchilik

hodisasining oldini olishga qaratilgan, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo`ladi. Kuzatishlardan ma'lum bo`lishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiliginı oldini olishda eng avvalo jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik, individual psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o`rtasida yuzaga kelayotgan qonunbuzarliklarning oldini olish ishlari umumiyligi va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi.

O`smirlik davri yosh davrlari orasida eng ahamiyatli davrlardan biri hisoblanadi. Chunki bu davr shaxs shakllanishidagi asosiy davrdir. O`smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o`tish davri», «og`ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ataladi.

O`smirlik davrining og`ir, murakkab davr ekanligi ko`plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog`liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o`zgaradi. Bu davrda o`smir hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu davr taxminan bolaning 5-9 sinflarda o`qish paytiga to`g`ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha davr oralig`ida bo`ladi va bu yosh davrlarining xarakter xususiyatlaridagi o`zgarishlarini psixologik qonuniyatatosida amalga oshishini bilish maqsadga muvofiqdir.

10-yosh o`smirlar muvozanatlari hayotni tez idrok etuvchi, ishonuvchan, otaonalariga itoatli, tashqi qiyofaga e'tiborsiz bo`lganligi bois bu “oltin yosh” hisoblanadi.

11-yosh organizmda qayta qurish yuz beradi, bolalar g`ayri shuurli, negativlikni namoyon qiladi, kayfiyati tez o`zgaradi, ota-onalariga nisbatan norozilik bildiruvchi.

12-yosh tez jazavaga tushuvchan, dunyoga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, o`smirda oilasiga nisbatan avtonomlik va tengdoshlariga ta'siri ortadi. Ularda aqlilik, hazil-mutoyibaga moyillik, chidamlilik, tashabbuskorlik,

tashqi qiyofa va qarama-qarshi jinsdagilarga e'tibori orta boshlaydi. 13-yosh o'zining ichki dunyosiga e'tiborlik, introvertlikka xos bo'ladiki, ular o`zini o`zi tanqid qilishga, va tanqidlarga nisbatan ta'sirlanuvchan, ota-onalarga tanqidiy munosabat bildiruvchi, do'st tanlovchi, to'lqinlanish va hayojonlanish ortadi.

14-yosh o`smirlardagi introversiya ekstraversiyaga almashinadi, shioatli, xushmuomila, o`ziga ishonch uyg'onadi, boshqalarga e'tibori ortadi va ular o`rtasidagi farqni ajrata boshlaydi.

15-yosh bu yoshdagilar uchun mustaqillik ortadi, bu esa ularning oila va maktab bilan bog`liq zo`riqishlarga duchor etadi. Ularni guruhli harakat qilishga va guruhdagilarga moslashishga intilish ortadi.

16-yosh o`sprinlar hisoblanib, ularda muvozanatlashuv, hayotdan quvonish, ichki mustaqillik, emotsional barqarorlik, muomalaga moyillik, kelajakka intiluvchanlik ortadi.

Yuqorida sanab o`tilgan holatlar bilan yosh davrlarni xarakterli jihatlarini sharhlab o`tdik, chunki yosh xususiyatlarining psixologik tavsiyi, bolalarni xulqatvoridagi o`zgarishlarini baholash imkoniyatini beradi. O`smirlik davri bolalikdan kattalikka o`tish davri sifatida har doim qiyin davr hisoblanadi va shu sababli ham doimo psixolog va sotsioglarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Bu yoshdagi krizis kichik yoshdagi krizisdan ahamiyatli darajada farq qiladi. Bu davrdagi krizis eng uzoq davom etishi, eng shiddatligi va keskinligi bilan farqlanadi. Bu bosqich davomida bolaning o`ziga va atrofdagilarga bo`lgan munosabati tubdan o`zgaradi va qayta quriladi, hayotiy pozitsiyasi shakllanadi.

Bolaning kattalar olamiga kirib borishi bir lahzada ro'y beradigan hodisa emas, balki uzoq davom etuvchi jarayondir. Bunda boladan biologik, psixologik va ijtimoiy tomondan voyaga yetishi talab qilinadi.

O`smirlik davrida bolanining ijtimoiy munosabatlarida va dunyoqarashida ham keskin o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu davrga kelib uning qadriyatları ham o`zgaradi, ilgari uning uchun qadrli bo`lgan narsalar ahamiyatini yo`qotadi.

Bola ilgari o`zi uchun qiziqarli bo`lgan mashg`ulotga umuman befarq bo`lib qolishi yoki aksincha yangi mashg`ulotga qiziqib qolishi mumkin.

O`smirning jismoniy va psixik rivojlanishi jarayonida unda juda ko`p ehtiyojlar paydo bo`ladi. O`smirda ijtimoiy yetilish yetarli bo`lmaganligi sababli bu ehtiyojlarniqondirish har doim ham mumkin bo`lavermaydi. Shu sababli o`smirlilik davrida ehtiyojlar deprivatsiyasi kichik yosh davriga qaraganda tez-tez va kuchli ifodalanadi.

Bu davrga kelib o`smirning intellektual imkoniyatlari oshadi, dunyoqarashi kengayadi, yangi qiziqishlar paydo bo`ladi. Unda hayotiy aloqalar doirasini kengaytirishga ehtiyoj paydo bo`ladi, tengdoshlari bilan ko`proq muloqotda bo`la boshlaydi. Avvallari ota-onasi va o`qituvchisini har doim haq deb hisoblagan bola o`smirlilik davriga o`tganidan keyin tengdoshlarining fikrini ota-onasining va o`qituvchisining fikriga qaraganda ahamiyatliroq hisoblaydi.

O`smir o`zida yuz berayotgan o`zgarishlarni his qiladi, ammo barcha hissiyotlarini ham to`liqligicha anglamaydi va tushunmaydi.

O`smirlilik davrida bola endi «bola» emas, shu bilan birga u hali «katta» ham emas.

Ob`yektiv yosh davriga qaramasdan o`smirning ijtimoiy holati o`zgarmaydi, u o`quvchiligidagi ota-onasining qaramog`ida qoladi. Ammo u o`zini «katta odam» deb hisoblaydi, o`zining muammolarini o`zi hal qilishga harakat qiladi. Shu sababli uning ko`pgina da`vo va talablari hal qilib bo`lmaydigan qiyinchiliklarga olib boradi, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Psixologik maslahat o`tkazishning quyidagi xususiyatlari mavjud. Maktab psixologi maslahat jarayonida shu xususiyatlarga amal qilishi lozim.

1. Tarbiyasi qiyinlikni bartaraf etishning optimal psixologik yo`llarini aniqlash.
2. O`smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi, hayotga munosabati, o`z-o`ziga ishonchi, irodaviy-hissiy o`zini boshqarishni tahlil etib shularga mos ravishda maslahat berish.

3. O`smirga insoniy yondashish, ijobiy munosabat o`rnatish.
  4. Maqsadga erishishda o`smir bilan psixologning birgalikda harakat qilishi.
  5. Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o`smir hayotidagi ijtimoiy, shaxsiy vazifalarni hal etish.
6. O`smir bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatini bilish, maslahat berishda aniq maqsad qo`yish.

Psixologik maslahat psixologik xizmatning ob`yektiga qarab o`zgarib rivojlanib boradi, bu esa individuallik, shaxsga yo`naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi. Amaliyotchi psixolog psixologik maslahat berishdan tashqari o`smirlar bilan reja asosida psixokorreksion mshag`ulotlarni yakka va guruhlar asosida olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyasi og`ir bolalar bilan ishlashda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozim.

Bolalarda ijobiy xulq-atvor va xarakter xislatlarini shakllantirishga yo`naltirilgan tarbiyaviy jarayonni tashkil etish.

Psixolog boladagi eng yaxshi insoniy fazilatlarni ko`ra olishga va bolalarda o`ziga ishonish, o`z xulqini o`zi yaxshilash motivlarini shakllantirishi zarur. Bolalarning o`zlaridagi ijobiy xarakter xislatlarini anglashini rag`batlantirish.

Bolalarni o`z xulq-atvorini o`zi baholashga o`rgatish. O`quvchilarning ijobiy xatti-harakat qilishlarini muntazam nazoratga olish

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rean A.A “Prakticheskaya psixodiagnostika lichnosti” Piter 2001
2. E.G’oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent 2002